

О‘ЗБЕК MILLIY GAZLAMALARINING TAHLILI

Yunusxodjayeva Nilufar Doniyorovna

Namangan To‘qimachilik Sanoati Instituti “Dizayn” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: O‘zbek milliy gazlamalari haqida ma’lumotlar. Ularning turlari va tayyorlanish jarayoni.

Kalit sozlar: Milliy gazlama, amaliy san’ati, ekselsior, gaz, batik, shoyi, xon atlas, abr gazlamalari

O‘zbek milliy liboslari xalq amaliy san’atining nodir qatlamini tashkil etadi. O‘zbek milliy liboslar va gazlamalarining o‘z kelib chiqish tarix va boy madaniy merosiga ega. O‘zbek xalq amaliy san’ati ko‘p asrlik an’analarning saqlanib qolinishi hamda rivojlanishi natijasida ma’naviy-axloqiy tiklanishiga sabab bo‘ldi. Shu bois, bugungi kunda o‘zbek milliy qadriyatlar va urf-odatlar o‘rganilib tahlil qilinmoqda.

O‘zbek milliy liboslarning xalq amaliy san’atida o‘ziga xos ahamiyatiga ega. Bunda milliy liboslar yaxlit ansambl ko‘rinishida shakllanganligi milliy liboslar madaniy hayot tarzi va urf-odatlarini bilan cham barchas bog‘liqdir.

Milliy liboslarni o‘rganish va tadbiq etishning maqsadi madaniy boy me’rosni o‘rganib, yanada boyitishdir. O‘zbek milliy liboslar asrlar davomida yaxlit san’at asari ko‘rinishida shakllangan. Bunday ko‘rinishidagi milliy liboslar yillar davomida ko‘pgina etnogroflarni o‘ziga jalb etib kelgan, xalq amaliy san’atining ahamiyati bugungi kunga kelib dolzarb masalalardan biriga aylandi va madaniy merosga katta ahamiyat berilmoqda.

Abrli bo‘yashni paydo bo‘lish vaqtini aniqlash mushkul. Qadimgi abrbandchi-ustalar abrbandli texnikani qadimiy deb hisoblashadi. Naqshni rangda ishlab chiqish bosqichma-bosqich rasmning alohida elementlarni turli rangga bo‘yash bilan amalga oshiriladi.

Abrli matolardagi naqshlar asosni bog‘lash murakkab texnikasi orqali bajariladi. Asos maxsus taxtachaga tortilib, iplar sanalib, nuqtalar orqali belgilab olinar, so‘ngra ma’lum rangga bo‘yalardi. Qolgan iplari esa qalin paxta tolali iplar bilan bog‘lanadi. Bog‘langan asos bo‘yoqqa solinadi. Rang va naqshlar ipga to‘kilgunga qadar olinadi va maxsulot tayyor bo‘lgandagina ko‘z o‘ngimizda naqsh paydo bo‘ladi. Har bir ip uch marotaba bo‘yalib quritiladi. Asosiy foydalanadigan ranglar sariq, qizil va ko‘k. Har bir bo‘yalish bosqichi jarayonida usta har bir ip tolasini rang tegib ketmasligi uchun bog‘lab qo‘yadi. Shu sababli kul rangga bo‘yaluvchi maydon sariq va qizil ranglarga bo‘yalishdan avval bog‘lanadi. Yashil rangga bo‘yaluvchi maydon sariqqa bo‘yaladi, so‘ngra qizil rangga bo‘yalish uchun bog‘lanadi. Chunki bu ranglar

aralashmasi yashil rangni beradi. Matolarni bo'yash uchun o'simlik bo'yoqlaridan foydalaniladi. Indigo (ko'k), marena (qizil), isparak (sariq) ranglar mustahkam va nozik ranglar uyg'unligini beradi. Abr–nafaqat mebelda, gilamda yoki pardalarda, balki chinni buyumlarda, oboylarda, dasturxon va boshqa buyumlarga ham tushirilishi mumkin. Abr uchun naqshlarda geometrik figuralardan uslublashtirilgan gullar va o'simliklar, kamalak singari bir-biriga kirishib ketgan ranglar uyg'unligi va tabiatdan olingan mavzulardan foydalaniladi. Bunday gazlamalarni Buxoro, Marg'ilon, Namangan, Samarqand, Xodjikentda ishlab chiqariladi. Qo'lda to'qilgan abr gazlamalarida albatta oq chiziq bo'ladi, shunga ko'ra to'quvchi naqshlarni tekislab turadi. Bu oq chiziq matoni qo'lda to'qilganligidan dalolat beradi.

Har bir shoyi to'qish maktabi o'zining abr gazlamalaridagi badiiy naqshi bilan tanilgan. Har bir naqsh tuzilishiga ko'ra nimani eslatishi bo'yicha nomlangan. Eng keng tarqalganlariga: tumorcha, taroq, gajak, o'roq, bodom, daraxt, anor, oy, shox, nog'ora, chaqirim, kapalak, ilon izi, chayon va boshqalar. Abr naqshlarida ko'proq o'zbek an'anaviy taqinchoqlari tasvirlagan, masalan, tomchi ko'rinishli ziraklar va uchburchak tumorlar. O'zbek qizi turmushga chiqqanda u eng chiroyli taqinchoqlarni taqishi kerak bo'lgan. Bu narsa uning oilasini boyligini ko'rsatgan. Aytishlaricha, qadimda agar qiz bola taqinchoqlar og'irligidan yurolmasa, eng boy oilani qizi hisoblangan. Taqinchoqlar juda qimmatbaho hisoblangan, ularsiz marosim o'tkazilmagan. Shuning uchun bu muammoni ochish uchun odamlar taqinchoqlar tasvirlangan abr gazlamalarini sotib olishgan. Uni qimmatbaho sovg'a sifatida berishgan, meros sifatida qoldirishgan, u bilan to'lovlar to'langan.

O'zbekiston abr gazlamalari o'zini chiroyi bilan butun dunyoga tanilgan. Shoyi va yarimshoyi matolar O'rta Osiyo to'qimachilik ishlab chiqarishida qadimdan bo'lgan. Atlas, adras va beqasam matolarining ustki qismi yaltirab turishi uchun tuxum oqidan foydalanilgan.

Buxoroning abrli matolarida asosan uch xil rang ishlatiladi: to'q qizil, sariq va pushti rang.

Farg'ona abrli matolarining rang tusi asosan yetti xil rangdan iborat: sariq, to'q qizil, yashil, qora, ko'k, pushti, siyohrangdir.


Ranglar uyg'unligini hosil bo'lishida ranglarning bir-biriga o'tib borishi va rang foniga bog'liq. Abrli gazlamalarning naqshlari o'zining kompozitsion tuzilishiga ko'ra turlidir. Usullarni birlashtirishda, ularni uchta asosiy sistemaga ajratish mumkin: katak-katak kompozitsiya, yo'l-yo'l kompozitsiya, butun shaklda yechilgan panno. Katak–katak rasmlari gazlamalarning bir necha turi mavjud. Katakning chizilishi aniq chizilgan chiziqlar bilan ajralib turadi. Boshqa bir ko'rinishda uning shakli naqshlarning takrorlanishi bo'yicha joylashtirilgan bo'ladi. Yo'l-yo'l gazlamalar turli xilligi bilan xarakterlanadi.

Bir xil elementli yo‘l-yo‘l matolar ham uchrashi kuzatiladi, odatda bir yoki bir necha naqshlar ketma-ket kelishi mumkin. Bir xil yoki turli kenglikdagi yo‘l-yo‘l naqshlar o‘zaro ketma-ket kelishi ham kuzatiladi. Shuningdek, keng yo‘llar o‘rtada joylashib, ikki chetidan bir xil naqshlar tushirilgan bo‘ladi.

Mahalliy aholida archa shaklidagi matolar urf bo‘lgan. Shuningdek, hayvonlar shoxi va o‘simliklar murakkab shakldagi naqshlar ishlatilgan.

Juda qiziqarli panno shakldagi gazlamalar ham urf bo‘lgan. Kompozitsiyalarda markaziy figura sifatida oddiy bir tipdagi naqshlar ishlatilgan. Bularga: katta guldasta, daraxtlar va katta aylanalar tasviri kirgan. Abrli matolardagi naqshlar turli xil bo‘lgan. Abrli matolarda ishlatilgan naqshlarning nomlaridan bilishimiz mumkinki, ustalar ayrim obrazlardan foydalanishgan. Masalan, islimiy naqshlardan bo‘lgan “bargi karam” karamning barglarini faqat rangi bilan eslatib turgan. Yana boshqa bir rasm syujetlari osilib turuvchi chiroqlarni, mixroblarni, rozetkalarini ham eslatadi. Bunday ko‘rinishlar yog‘och o‘ymakorligida, kashtalarda, me‘morchilik bezagida uchraydi. Shuningdek, “qora palak”, “oq palak” kabi nomlari ham mavjud. Ko‘pgina naqshlarning asosida maishiy buyumlar tasviri ham ishlatilgan: “charmak”, “taxtakach”, “taroq”, “o‘roq”, “kosa gul”, “nog‘ora”, “nog‘ora moki”, “ralviroq”, “samolyot”, “patnus”, “chetan”, “bayroq”, “katak”, “zanjira”. O‘simliksimon naqshlar mavzular bo‘yicha cheklangan bo‘lgan: “daraxt”, “tuvakda gul”, “bodom”, “nok”, “shox”, “anorcha”.

Shuningdek, naqshlarni tikishda hayvonlar ta’siridan ham foydalanishgan. Keng tarqalgan manbalardan “qochqor shoxi”, “yo‘lbars dumi”, “tuya paypoq”, “kapalak”, “chayon”, “ilon gul” va hokazo. Ko‘pgina naqshlarning nomi ularning abstrakt xarakterini tasdiqlaydi, ular quyidagi ranglar bilan yaratiladi: “moshrang”, “nilobi” – havo rang, “qora atlas”, “sapsar qarg‘a”-siyohrang qarg‘a, texnik xususiyatlarga qarab “oq arqoq”, “beshyorma”-besh qismdan iborat, “yakbas”- ikki xil rangdagi mato va hokazo. Ayrim matolar umumiy taassurotlar asosida nomlanadi, ular asosiy rang uyg‘unligidan iborat: ikki xil rangdagi qora-oq matolar orasiga ayrim xollarda ko‘k yoki yashil ranglarning kiritilishidir. Shuningdek, “oddiy”, mayda taroqli matolar, “kichik” – quvnoq, “sho‘x”- kabilardir. Quyoshning barcha ranglarining o‘zida mujassam etgan ko‘prangli naqshlar “tiyri kamon”, “bahor”, “chaman” va hokazo nomi bilan aytiladi.



Murakkab naqshli bir necha guruhlar ham mavjud. Bu naqshlar adabiyot qahramonlariga yoki alohida kishilarga bag'ishlangan. "Oftobxon", "Xosiyatxon" (bu nomlar mashhur hunarmand ayollar nomidir). "Domlajon"(ushbu naqshni yaratgan abrbandchi nomi), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Toxir va Zuxra". Ayrim xollarda naqshlarga alohida aholi uchun an'anaviy bo'lgan nomlar qo'yilgan: "Fartona nusxa" yoki "jugut guli"- jugutlar naqshi va h.k.

Ayrim naqshlar o'zining ko'rinishiga nisbatan kattaroq nomga egadir. Bu jarayon mohir usta-hunarmandlarning yaratgan kompozitsiyalarida murakkab g'oyalarni kiritish demakdir. Bular natijasida ranglar uyg'unligi, naqshning shakli va asosiy g'oyaga erishiladi. Atlaslarda qo'llanilgan mashhur naqshlar: "G'alaba", "O'zbekiston", "Sputnik", "Kreml" va h.k.



1-rasm. a'lo baxmal gazlamasi

Barcha mayda elementlar funksional ahamiyatga egadir: ayrim hollarda markazda joylashgan naqshlarni ikki tomonidan chegaralab, faqatgina tor yo‘l-yo‘l naqshlarni bezash uchun foydalaniladi, boshqalari esa, ushbu naqsh atrofida bo‘sh yo‘llarni to‘ldirish uchun ishlatiladi. Quyidagi yordamchi elementlar tez-tez uchrab turadi: “tarqoq”, “shoh”, “kosa gul”, “shokila”, “bodomcha”, “ilon izi”, “tumorcha”, “sim-sima” va h.k. Shoyi matosi to‘qilishi va iplari aralashmasidan kelib chiqan xolda turlarga bo‘linadi. Tanda va arqoq ipak tolali bo‘lsa shoyi, xon atlas; tanda ipak tolali va arqoq ip paxta aralashmasidan to‘qilgan bo‘lsa adras; duxoba matosidek tukli ko‘rinishga ega bo‘lgan gazlama a‘lo baxmal, bu mato ipak tola yoki paxta aralashmasidan to‘qilishi mumkin.

Bugungi kunga kelib, milliy gazlamarning turlari va naqshlari zamonga qarab o‘zarib bormoqda.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Диссертации На тему "Мавераннахрская (среднеазиатская) миниатюрная живопись XVI-XVII вв. как источник по истории костюма" Рахимова, Зухра Ибрагимовна, 1984 год
2. Майтдинова Г. Ткани Тохаристана // Раннесредневековые ткани Средней Азии. Душанбе, 1996.
3. “O‘zbek milliy liboslarning zamonaviy moda olamida o‘rni” N.D. Yunusxodjayeva, Yunusxodjayeva X.M.
4. rasm. <https://society.uz/>